

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RLARIDA TARIXIY SIYMOLAR OBRAZI

Ergasheva Rayhon O'tkir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi Erkin tadqiqotchi

Annotasiya:

Ushbu maqolada zamnavi o'zbek she'riyatida Sirojiddin Sayyid ijodida tarixiy siymolar obrazi tadqiq etiladi. Shoiring obraz yaratish mahorati, unda talmeh sanatining o'rni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: tarixiylik, obraz, talmeh, badiiy mahorat, uslub, she'riyat Xalqimiz tarixining muhim voqeligi, qadriyatlari, allomalari, buyuk shaxslari, bahodiru sohibqironlari, ma'naviyatimizning ulug' mutafakkirlari siymosi o'zbek adabiyotida badiiy obraz sifatida muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, tarixiylik asosida badiiy asarda hayotiy haqiqat badiiy aks ettiriladi. Sharq she'riyatida bunday tasvir talmeh(antonamaziya metaforalar) vositasi orqali yuzaga chiqadi. Talmeh san'atida dastlab mashhur asarlar va uning qahramonlari, bayt va xalq maqollariga ishora qilingan. Undan so'ng ifoda doirasi kengayib, muhim tarixiy voqealar, mashhur tarixiy siymolar bilan bog'liq hodisalarga ishora qilish talmehning asosiy manbaiga aylanib ketgan¹. Zamnaviy o'zbek she'riyatida tarixiy obrazlar siymosini tasvirlash yetakchi tasvir usuliga aylandi. XX asr va hozirgi o'zbek she'riyatidagi ijodiy izlanishlar samarasini natijasida talmih san'ati ham yangicha talqinlarda o'z badiiy ifodasini topmoqda. Ushbu san'atning bugungi davr she'riyatida afsonalar qahramonlariga, romantik qahramonlarga emas, balki real qahramonlar, tarixiy shaxslar nomiga ishora qilishga intilish kuchaydi.

Bu ayniqa zamnaviy she'riyatimiz namoyandasini Sirojiddin Sayyid ijodida kuzatiladi. Uning Vatan mavzusidagi she'rlarida tarixiy shaxslar siymosi va merosi har jihatdan ibrat namunasi ekanligi ta'kidlanadi.

...Valiylardan ibrat so'ylar juldur sahrolar,

So'ndi qancha sultanatlар, qancha tug'rolar.

Maqbaralar aytsin, lekin aytsin Zuhrolar,

Yer ostida suhabat aytar hanuz Kubrolar,

Termiziylar bedor yotgan qo'rg'onim Vatan².

¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 397.

² Сайид Сирожиддин. Сўз йўли: танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2008. – Б. 364.



Sirojiddin Sayidning ijodida tarixiy obrazlarni quyidagi tasnifi kuzatiladi:

- 1) Tarixiy siymolar obrazi;
- 2) Din, tasavvuf, avliyo obrazlari;
- 3) Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari;
- 4) XX asr o'zbek adabiyoti vakillari.

Shoir she'rlaridan olingan quyidagi she'riy parchalarda o'zbek adabiyoti namoyandalari badiiy timsol sifatida qo'llanilib, ular obrazida adabiyotimiz manzaralari ifodalangan.

Abadiy yod erur adabiyoting

Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy ham Usmonim Vatan.

Boburgacha – besh yuz tosh-u

To Navoiy – ming yog‘och.

Xatlar oldim yuragimga Naqshbandlardan,

Ushbu tarixiy siymolar nomi har bir o'quvchi qalbida milliy iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Yuqorida aytganimiz singari she'rda keltirilgan ulug'lar nomi vatanparvarlik g'oyalarini yuksaltirguvchi kuch bo'lib, she'r ta'sirchanligi va jozibasini ta'minlashga xizmat qilgan.

Shoirning "Vatan nadir" she'rda hadis ilmi sultoni Al-Buxoriy, shoh va shoir Bobur, sohibqiron Amir Temur, Furqat va Cho'lpon nomlari keltirilishi bilan birga ular qismatidagi va yurtimiz boshidan kechirgan achchiq haqiqatlar ro'y-rost aytiladi. She'r to'qqiz band bo'lib "Vatan nadir?" so'rog'iga misrama-misra, bandma-band tadrijiy javob izlanadi. Shoirning "Mangu nomlar" she'rda tarixiy siymolar obrazida yurtimizning olis o'tmishi manzarasi tasvirlanadi:

O'chmas Yer yuzida Buxoro nomi,

Toki yashar ekan Buxoriy nomi.

Mangu esaverar Termiz yellari,

Toki nur taratgay Termiziylari.

O'pdi bu tuproqdan neki jon bordir,

Hazrat Yassaviy bor – Turkiston bordir.

Amudaryolari abadiy azim,

Manguberdilari mangu Xorazm.

Xulosa qilib aytganda, shu ma'noda tarixiy jarayon she'riyatga manba ekan, davr va zamon bilan bog'liq holda yangi-yangi talmehlar paydo bo'laveradi. Har bir davr unga yangi badiiy estetik vazifa yuklaydi. Sirojiddin Sayyid she'riyatida talmih



san'ati ziynatli tasvir vositasi sifatida eng faol va shoir badiiy mahoratini ko'rsatuvchi badiiy san'at sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 397.
2. Сайид Сирожиддин. Сўз йўли: танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 384 б.
3. Сайид С. Сўз йўли: Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. – Т.: “Шарқ”, 2008. – 384 бет.

